

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
"NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud	
HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
AUTORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	232
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	



MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI	237
Erdonova Maxfuza Mardonovna	



MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI

Erdonova Maxfuza Mardonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ekonometrika kafedrası 1-bosqich tayanch doktoranti (PhD)

E-mail: maxfuza_erdonova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mohiyatini yoritish, ularning iqtisodiy jarayonlarni kompleks baholashdagi o'rini aniqlash va asosiy makroiqtisodiy guruhlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, tizimli yondashuv, guruhlash, tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish, narxlar, mehnat bozori, pul-kredit va moliya, tashqi hamda fiskal sektor ko'rsatkichlari kabi asosiy guruhlarga ajratildi. Ushbu guruhlar milliy iqtisodiyotning turli yo'nalishlarini tavsiflashi bilan birga, o'zaro bog'liq yagona tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, makroiqtisodiy jarayonlar, makroiqtisodiy muvozanat, yalpi ichki mahsulot (YalM), iqtisodiy o'sish.

Аннотация. Целью данного исследования является раскрытие сущности макроэкономических показателей, определение их роли в комплексной оценке экономических процессов и выделение основных групп макроэкономических показателей. В процессе исследования использованы методы сравнительного анализа научной литературы, системного подхода, группировки, классификации и обобщения. В результате исследования макроэкономические показатели были разделены на основные группы, включающие показатели производства и экономического роста, цен, рынка труда, денежно-кредитной и финансовой сферы, внешнего и фискального секторов. Данные группы, характеризуя различные направления национальной экономики, одновременно способствуют формированию единой взаимосвязанной системы.

Ключевые слова: система макроэкономических показателей, макроэкономические процессы, макроэкономическое равновесие, валовой внутренний продукт (ВВП), экономический рост.

Abstract. The purpose of this study is to elucidate the essence of macroeconomic indicators, determine their role in the comprehensive assessment of economic processes, and identify the main groups of macroeconomic indicators. The study employed comparative analysis of scientific literature, a systematic approach, grouping, classification, and generalization methods. As a result of the study, macroeconomic indicators were divided into major groups, including indicators of production and economic growth, prices, the labor market, monetary and financial sectors, and external and fiscal sectors. These groups characterize various areas of the national economy while contributing to the formation of a unified and interconnected system.

Keywords: system of macroeconomic indicators, macroeconomic processes, macroeconomic equilibrium, gross domestic product (GDP), economic growth.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mamlakatning iqtisodiy holati, rivojlanish sur'atlari va makroiqtisodiy barqarorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan jarayonlarni ifodalash, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini belgilash uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bir-biridan alohida shakllanmaydi, balki o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya, bandlik va ishsizlik, investitsiyalar, foiz stavkalari, eksport va import hamda tashqi qarzdagi o'zgarishlar iqtisodiyotning umumiy holatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mamlakat iqtisodiyotini faqat bitta ko'rsatkich, jumladan, YalM asosida baholash yetarli emas, balki asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish zarur.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ko'pligi ularni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash va tasniflash zaruratini yuzaga keltiradi. Ularni ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish, narxlar, mehnat bozori, pul-kredit va moliya, tashqi hamda fiskal sektor guruhlariga ajratish iqtisodiyotning turli yo'nalishlarini tizimli baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmunini yoritish, ularning milliy iqtisodiyot holatini baholashdagi ahamiyatini aniqlash hamda asosiy ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflashdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Makroiqtisodiyot va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mazmuni iqtisodiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. N.G. Mankiw makroiqtisodiyotni ishlab chiqarish hajmi, bandlik, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish kabi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali iqtisodiyotning yaxlit faoliyatini o'rganuvchi fan sifatida talqin qiladi [1]. Sh.Sh. Shodmonov va U.V. G'afurov milliy iqtisodiyotdagi jarayonlar hamda ularni ifodalovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni o'rganishga e'tibor qaratgan [2]. A.S. Greenlaw va D. Shapiro esa ishlab chiqarish o'sishi, ishsizlik, inflyatsiya, davlat siyosati va tashqi iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiyotning asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida ko'rsatgan [3].

J.M. Keynes makroiqtisodiy muvozanatni yalpi talab, bandlik va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik orqali tushuntirib, davlatning barqarorlashtiruvchi rolini asoslagan [4]. M. Friedman pul taklifi va pul-kredit siyosatining nominal daromad hamda umumiy narxlar dinamikasiga ta'siriga ustuvor ahamiyat bergan [5]. P.A. Samuelson va W.D. Nordhaus makroiqtisodiyotda qisqa muddatli talabni boshqarish bilan uzoq muddatli bozor muvozanatini uyg'unlashtirgan [6]. N.G. Mankiw esa makroiqtisodiyotda qisqa muddatda narxlar va ish haqining nisbatan qat'iyligini, uzoq muddatda ishlab chiqarish omillari va texnologiyaning rolini ajratib ko'rsatgan [7].

Mahalliy va MDH olimlaridan B.Yu. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'afurov, T.A. Agapova, S.F. Seregina va A.A. Shulimova makroiqtisodiyotni o'zaro bog'langan bozorlar, institutsional mexanizmlar va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida talqin qilganlar [8–11]. N.N. Izatova va O'.N. Abdullayevlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ishlab chiqarish, iste'mol va investitsiyalar darajasini ifodalash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini qayd etgan [12]. I.S. Karieva esa ularning iqtisodiy o'sish, bandlik, inflyatsiya va barqarorlikni baholash imkonini beruvchi o'zaro bog'liq statistik ma'lumotlar tizimi ekanligini ta'kidlagan [13].

Yuqoridagi adabiyotlardan ko'rinadiki, makroiqtisodiy holatni bitta ko'rsatkich bilan emas, balki o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash lozim. Shu jihatdan ularni bir nechta makroiqtisodiy guruhlar, xususan, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish, narxlar, mehnat bozori, pul-kredit va moliya, tashqi hamda fiskal sektorlar bo'yicha guruhlash va tasniflash zarurligi ko'rinadi. Bu esa, o'z navbatida, mazkur tadqiqot ishi yo'nalishini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni va tasnifini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlardagi nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish, narxlar, mehnat bozori, pul-kredit va moliya, tashqi hamda fiskal sektor guruhlariga tasniflandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirishdan avval ularning shakllanishiga asos bo'lgan ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish muhimdir. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan nazariy qarashlar makroiqtisodiy holatni baholashda turli ko'rsatkichlarga ustuvor ahamiyat berilishini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval

Makroiqtisodiyotga oid asosiy ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi¹

№	Olim va ilmiy yo'nalish	Yondashuvning ilmiy mazmuni	Asosiy tahlil ko'rsatkichlari
1	J.M. Keynes Keynschilik yondashuvi	Makroiqtisodiy muvozanatni yalpi talab, bandlik va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik orqali tushuntiradi. Bozor mexanizmi to'liq bandlikni avtomatik ta'minlamagan sharoitda davlatning barqarorlashtiruvchi siyosatiga alohida o'rin beradi.	-yalpi talab; -bandlik; -iste'mol; -investitsiya; -davlat xarajatlari.

1 Tadqiqot jarayonida dissertatsiya muallifi tomonidan umumlashtirilgan.



2	M. Friedman Monetaristik yondashuv	Nominal daromad va umumiy narxlar dinamikasini izohlashda pul taklifi hamda pul-kredit siyosatining roliga ustuvor ahamiyat beradi. Uzoq muddatda inflyatsiya bilan ishsizlik o'rtasida barqaror almashinuv mavjud emasligini asoslaydi.	-pul massasi; -inflyatsiya; -monetar siyosat; -tabiiy ishsizlik darajasi; -kutilmalar.
3	P.A. Samuelson Neoklassik sintez	Makroiqtisodiyotni milliy iqtisodiyotning umumiy holatini ifodalovchi agregat ko'rsatkichlar tizimi sifatida yoritadi. Qisqa muddatli talabni boshqarish g'oyalarini bozorning uzoq muddatli muvozanat mexanizmlari bilan uyg'unlashtiradi.	-Yalpi ichki mahsulot (YalM); -iqtisodiy o'sish; -inflyatsiya; -ishsizlik; -fiskal va monetar siyosat; -tashqi savdo.
4	N.G. Mankiw Yangi keynschilik yondashuvi	Butun iqtisodiyot miqyosidagi ishlab chiqarish, narxlar va bandlik dinamikasini o'rganadi. Qisqa muddatda narx va ish haqining nisbatan qat'iyligi, uzoq muddatda esa ishlab chiqarish omillari va texnologiyaning rolini farqlaydi.	-Real YalM; -inflyatsiya; -ishsizlik; -iqtisodiy o'sish; -yalpi talab va yalpi taklif.
5	B.Y. Xodiyev Milliy iqtisodiyotga tizimli yondashuv	Makroiqtisodiy jarayonlarni milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, iste'mol, jamg'arma, investitsiya va bandlik kabi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali baholaydi; barqaror iqtisodiy o'sish va davlat siyosati masalalariga urg'u beradi.	-YalM; -milliy daromad; -iste'mol; -jamg'arma; -investitsiya; -bandlik.
6	Sh. Shodmonov va U. G'afurov Tizimli-institutsional yondashuv	Milliy iqtisodiyotni o'zaro bog'langan bozorlar va institutsional mexanizmlardan iborat yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, ishsizlik, davlat budjeti va qarz munosabatlarini umumiy makroiqtisodiy muvozanat doirasida ko'rib chiqadi	-Iqtisodiy o'sish; -inflyatsiya; -ishsizlik; -davlat budjeti; -davlat qarzi; -makroiqtisodiy muvozanat
7	T.A. Agapova va S.F. Seregina Agregat bozorlar yondashuvi	Makroiqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o'sish, resurslarning to'liq bandligi, inflyatsiyani minimallashtirish va to'lov balansi muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan iqtisodiyotning yaxlit faoliyatini o'rganuvchi fan sifatida talqin qiladi.	-Tovarlar bozori; -mehnat bozori; -pul bozori; -moliya bozori; -agregat talab va taklif.
8	A.A. Shulimova Takror ishlab chiqarish yondashuvi	Makroiqtisodiyotni xalq xo'jaligi miqyosida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarini, shuningdek yalpi talab va yalpi taklif hamda bozor va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini o'rganuvchi fundamental iqtisodiy fan sifatida tavsiflaydi.	-Ishlab chiqarish; -taqsimlash; -ayirboshlash; -iste'mol; -takror ishlab chiqarish; -davlat tomonidan tartibga solish.

1-jadvalda keltirilgan yondashuvlar makroiqtisodiy jarayonlarni izohlashda turli nazariy ustuvorliklarga ega ekanligi bilan bir-biridan farqlanadi. Xususan, iqtisodchi J.M. Keynes keynschilik yondashuvini, M. Friedman monetaristik yondashuvni, P.A. Samuelson neoklassik sintez yondashuvini, N.G. Mankiw esa yangi keynschilik yondashuvini chuqur o'rgangan va ularga mos ko'rsatkichlarni tahlil qilgan. Mahalliy va MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) olimlari yondashuvlarida esa milliy iqtisodiyotga yaxlit tizim sifatida qarash kuchliroq namoyon bo'ladi. Mahalliy olim B.Y. Xodiyev makroiqtisodiy jarayonlarni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali baholashga urg'u bersa, Sh. Shodmonov va U. G'afurov iqtisodiyotni o'zaro bog'langan bozorlar va institutsional mexanizmlar tizimi sifatida talqin qiladilar. T.A. Agapova va S.F. Seregina asosiy e'tiborni agregat bozorlar muvozanatiga qaratib, A.A. Shulimova takror ishlab chiqarish jarayonlari hamda bozor va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini birgalikda ko'rib chiqadi. Demak, yondashuvlarning asosiy farqi makroiqtisodiy holatni tushuntirishda qaysi omil, masalan, yalpi talab, pul omillari, bozor muvozanati, institutsional aloqalar yoki takror ishlab chiqarish jarayonlari — yetakchi o'rin egallashida namoyon bo'ladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni guruhlash soha mutaxassislarining amaliy faoliyatini samarali tashkil etishda hamda makroiqtisodiy tadqiqotlarni o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 2-jadvalda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy guruhlari va iqtisodiy mazmuni keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy guruhlar va iqtisodiy mazmuni²

№	Ko'rsatkichlar guruhi	Asosiy ko'rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni
1	Ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish	-YalM hajmi va o'sish sur'ati; -sanoat ishlab chiqarishi; -asosiy kapitalga investitsiyalar.	Milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish ko'lami, faolligi va o'sish dinamikasini ifodalaydi.
2	Narxlar	-iste'mol narxlar indeksi; -inflyatsiya darajasi; -YalM deflyatori.	Narxlar barqarorligi, pulning xarid qobiliyati va umumiy narxlar darajasidagi o'zgarishlarni baholaydi.
3	Mehnat bozori	-Bandlik va ishsizlik darajasi; -ishchi kuchida ishtirok etish; -o'rtacha ish haqi.	Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va aholining iqtisodiy faolligini ko'rsatadi.
4	Pul-kredit va moliya sektori	-Asosiy foiz stavkasi; -pul massasi; -bank kreditlari; -valyuta kursi.	Pul-kredit sharoitlari, moliyaviy vositachilik va iqtisodiyotdagi likvidlik holatini tavsiflaydi.
5	Tashqi sektor	-Eksport va import; -savdo balansi; -joriy operatsiyalar hisobi; -tashqi qarz	Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari, valyuta tushumlari va tashqi barqarorligini aks ettiradi.
6	Fiskal sektor	-Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari; -budjet taqchilligi; -davlat qarzi.	Davlat moliyasining holati, fiskal siyosat yo'nalishi va qarz barqarorligini baholashga xizmat qiladi.

2-jadvaldan ko'rinadiki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 6 ta asosiy guruhdan iborat bo'lib, ular iqtisodiyotning alohida yo'nalishlarini tavsiflash bilan birga, uning umumiy holatini kompleks baholash imkonini beradi. Ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari iqtisodiy faollikni, narxlar va mehnat bozori ko'rsatkichlari esa barqarorlik hamda aholining iqtisodiy holatini ifodalaydi. Pul-kredit, tashqi va fiskal sektor ko'rsatkichlari moliyaviy sharoitlar, tashqi iqtisodiy aloqalar hamda davlat moliyasining barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar iqtisodiyotni turli tomondan tavsiflasa-da, ular alohida emas, balki yagona tizimning o'zaro bog'liq elementlari hisoblanadi. Shu sababli ham bir ko'rsatkichdagi o'zgarish boshqa ko'rsatkichlarga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning holati, rivojlanish dinamikasi va barqarorligini ifodalovchi o'zaro bog'liq tizim ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli mamlakatning makroiqtisodiy holatini baholashda faqat YalM yoki boshqa alohida ko'rsatkichga tayanish yetarli emas. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning darajasi, dinamikasi va o'zaro bog'liqligini birgalikda tahlil qilish iqtisodiyotdagi mavjud tendensiyalarni aniqroq aniqlash, makroiqtisodiy nomutanosibliklarni o'z vaqtida baholash hamda ilmiy asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning natijalar bo'limida taqdim etilgan tahlillar asosida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

– makroiqtisodiy holatni baholashda faqat YalMga tayanmasdan, asosiy ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish;

– ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olish.

Yuqoridagi tavsiyalar iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq baholash va asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

2 Dissertatsiya muallif tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Milliy hisoblar tizimi — 2008 (SNA 2008), Xalqaro Valyuta Jamg'armasining BPM6 va GFSM 2014 qo'llanmalari hamda Xalqaro Mexnat Tashkiloti mehnat statistikasi standartlari asosida umumlashtirilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mankiw N.G. *Macroeconomics*. 9th ed. — New York: Worth Publishers, 2016. — P. 14.
2. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010. — B. 340.
3. Greenlaw A.S., Shapiro D. *Principles of Macroeconomics* 3e. — Houston: OpenStax, 2022. — Ch. 1.2: "Microeconomics and Macroeconomics".
4. Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. — London: Macmillan, 1936. — P. 24–34, 372–384.
5. Friedman M. The Role of Monetary Policy // *The American Economic Review*. — 1968. — Vol. 58, No. 1. — P. 1–17.
6. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. *Economics*. 19th ed. — New York: McGraw-Hill/Irwin, 2010. — P. 367–385.
7. Mankiw N.G. *Macroeconomics*. 10th ed. — New York: Worth Publishers, 2019. — P. 3–18.
8. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. — Toshkent: Barkamol Fayz Media, 2017. — 784 b.
9. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010. — 728 b.
10. Agapova T.A., Seregina S.F. *Makroekonomika: uchebnik*. 5-e izd., pererab. i dop. — Moskva: Delo i Servis, 2004. — S. 5–7.
11. Shulimova A.A. *Makroekonomika: uchebnoye posobiye*. — Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvenniy agrarniy universitet, 2018. — S. 3–4.
12. Izatova N.N., Abdullayeva O'N. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy o'sishni baholashdagi ahamiyati // *Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari* ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — 2025-yil iyun. — B. 555–556.
13. Karieva I.S. *Makroiqtisodiyot: darslik*. — Toshkent, 2021. — B. 26–27.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100